SCIENCE HUB REVIEW
2026
Volume 1
Issue 4
www.sciencehubreview.uz
ILMIY ELEKTRON JURNAL

JANUBIY FARG‘ONA ARXEOLOGIK YODGOLIKLARI TADQIQOTLAR (N.G.Gorbunovaning tadqiqotlari asosida)

Xolmatov Qudratillo Saydmaxmutovich

Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti

ORCID-0009-0005-9642-846X

Annotatsiya

Farg‘ona vodiysi Markaziy Osiyoning qadimgi madaniy o‘choqlaridan biri bo‘lib, uning geografik joylashuvi, tabiiy resurslarga boyligi va qadimdan shakllangan dehqonchilik hamda chorvachilik an’analari ushbu hududda o‘ziga xos madaniy jarayonlarning vujudga kelishida muhim omil bo‘lgan. Ayniqsa, bronza davrining so‘nggi bosqichi va ilk temir davrida vodiy hududida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar arxeologik manbalar orqali keng yoritiladi.Mazkur hudud ko‘plab arxeolog olimlarda katta qiziqish uyg‘otgan bo‘lib,arxeologik tadqiqotlar olib borilishiga sabab bo‘lgan.Ushbu maqolada Farg‘ona vodiysining janubiy qismlarida joylashgan yodgorliklarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar, xususan, N.G.Gorbunovaning arxeologik tadqiqotlari haqida ma’lumotlar keltirilgan va ilmiy hulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar

Farg‘ona, sopol, Oqtom, Sufon, ekspeditsiya, Chust madaniyati, ilk temir davri, stratigrafiya.

KIRISH

XX asr boshlarida Markaziy Osiyo hududida arxeologiya fanining shakllanishi bilan Farg‘ona vodiysida ham rejali tadqiqotlar boshlandi. Bu jarayonda Turkiston havaskor arxeologiya to‘garagi a’zolari va bir qator rus tadqiqotchilari muhim o‘rin tutdilar. Ular tomonidan yig‘ilgan ma’lumotlar keyingi ilmiy ekspeditsiyalar uchun dastlabki manbaviy asos bo‘lib xizmat qildi.

Farg‘ona vodiysi arxeologiyasini ilmiy asosda o‘rganish XX asrning 30–40-yillaridan boshlandi. Bu davrda keng ko‘lamli arxeologik ekspeditsiyalar tashkil qilinib, vodiyning

turli hududlarida manzilgohlar, qabristonlar va qadimgi shahar xarobalari tadqiq etildi.Ushbu tadqiqotlarda A.N. Bernshtam, Yu.A. Zadneprovskiy, N.G. Gorbunova, A.A. Askarov kabi olimlar muhim o‘rin egalladilar. Ularning ishlari natijasida Farg‘ona vodiysining bronza va ilk temir davri yodgorliklari ilmiy jihatdan tasniflandi hamda madaniy-xronologik tizimi ishlab chiqildi.

A.N. Bernshtam Farg‘ona vodiysining qadimgi dehqonchilik madaniyati va uning Markaziy Osiyo sivilizatsiyalari bilan aloqalarini tadqiq etgan dastlabki olimlardan biri hisoblanadi. Uning ishlari keyingi tadqiqotlar uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qildi.

Yu.A. Zadneprovskiy esa Chust madaniyatini ilmiy jihatdan asoslab berdi. U Chust yodgorligidan topilgan arxeologik materiallarni tahlil qilib, Farg‘ona vodiysida ilk temir davri madaniyatining shakllanish bosqichlarini belgiladi. Uning xronologik sxemasi keyinchalik ko‘plab olimlar tomonidan qabul qilindi.

Farg‘ona arxeologiyasi tarixida N.G. Gorbunova alohida ilmiy maktab yaratgan tadqiqotchilardan biri hisoblanadi. Uning tadqiqotlari Oqtom, Sufon, Dalvarzin, Eylaton va boshqa yodgorliklarni qamrab olib, Farg‘ona vodiysi ilk temir davri aholisining moddiy madaniyati, xo‘jaligi, dafn marosimlari va etnomadaniy jarayonlarini kompleks ravishda tahlil qilish imkonini berdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

1986 yilda nashr etilgan «Древняя Фергана» monografiyasi Farg‘ona arxeologiyasi bo‘yicha fundamental tadqiqotlardan biri hisoblanadi. Asarda yuzlab arxeologik obyektlar haqidagi ma’lumotlar tizimlashtirilgan, ularning madaniy mansubligi, xronologiyasi va o‘zaro aloqalari ilmiy jihatdan asoslangan.

Gorbunovaning ilmiy yondashuvi quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi:
-arxeologik materiallarning tipologik tahlili;

-stratigrafik kuzatuvlarga asoslangan xronologiya;

-yodgorliklarni qiyosiy tahlil qilish;

-moddiy madaniyat orqali tarixiy rekonstruksiyani amalga oshirish.

Ushbu yondashuvlar hozirgi kunda ham Markaziy Osiyo arxeologiyasida muhim metodologik ahamiyatga ega. Tarixshunoslik tahlili shuni ko‘rsatadiki, Farg‘ona vodiysi ilk temir davri arxeologiyasini o‘rganish bir necha bosqichlarda amalga

oshirilgan. Agar XIX asr oxiri va XX asr boshlarida asosiy e’tibor yodgorliklarni qayd etishga qaratilgan bo‘lsa, sovet davrida kompleks arxeologik tadqiqotlar natijasida mintaqa madaniyatining xronologiyasi va tipologiyasi ishlab chiqildi. Bu jarayonda N.G. Gorbunovaning tadqiqotlari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, uning ishlari bugungi kun arxeologik tadqiqotlari uchun ham muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Oqtom qabristoni N.G. Gorbunovaning eng muhim tadqiqot obyektlaridan biri bo‘lib, uning natijalari Farg‘ona vodiysi aholisining dafn marosimlarini rekonstruksiya qilish imkonini berdi. Oqtomda aniqlangan qabr inshootlari, sopol idishlar, bronza taqinchoqlari va mehnat qurollari Chust madaniyati aholisining moddiy madaniyatini tavsiflashda etalon materiallar sifatida baholandi.

Gorbunova Oqtom materiallarini tahlil qilish orqali quyidagi ilmiy xulosalarni ilgari surdi:

- qabr inventari ijtimoiy tabaqalanishning dastlabki belgilarini aks ettiradi;
- sopol idishlar mahalliy kulolchilik an’analarining uzluksiz rivojlanganligini ko‘rsatadi;
- dafn marosimlari aholining diniy tasavvurlarini o‘rganish uchun muhim manba hisoblanadi.

Keyingi tadqiqotlarda mazkur xulosalarning asosiy qismi tasdiqlangan bo‘lsa-da, ayrim xronologik masalalar yangi radiouglerod tahlillari natijalari asosida qayta ko‘rib chiqilmoqda.

Sufon qabristoni ham Farg‘ona vodiysi ilk temir davri aholisining moddiy va ma’naviy madaniyatini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yodgorlikdan topilgan sopol idishlar, bronza va temir buyumlar, shuningdek dafn marosimlari Oqtom materiallari bilan ko‘p jihatdan o‘xshashlikka ega.

N.G. Gorbunova Sufon va Oqtom materiallarini qiyosiy tahlil qilish orqali ularning yagona madaniy muhitga mansubligini asosladi. Bu yondashuv keyinchalik Farg‘ona vodiysi yodgorliklarini umumiy madaniy tizim sifatida o‘rganishga turtki berdi.Shu bilan birga, zamonaviy arxeologlar Sufon materiallarini faqat Chust madaniyati doirasida emas, balki vodiyning boshqa ilk temir davri majmualari bilan ham taqqoslash zarurligini ta’kidlamoqdalar.

NATIJA VA MUHOKAMA

Arxeologik yodgorliklarni ilmiy jihatdan o‘rganishda stratigrafik tahlil muhim metodlardan biri hisoblanadi. Mazkur usul orqali madaniy qatlamlarning hosil bo‘lish ketma-ketligi, yodgorlikning nisbiy xronologiyasi hamda arxeologik topilmalarning o‘zaro bog‘liqligi aniqlanadi. N.G. Gorbunova Oqtom va Sufon yodgorliklarida qazishma ishlarini amalga oshirish jarayonida aynan shu metodga alohida e’tibor qaratgan.

U qazishmalar davomida har bir qabrning joylashuvi, chuqurligi, tuzilishi, to‘ldirma qatlamining xususiyatlari va undan aniqlangan topilmalarni alohida qayd etib borgan. Bu esa yodgorliklarning nisbiy sanasini aniqlash va ularni boshqa arxeologik majmualar bilan qiyoslash imkonini bergan.

Oqtom yodgorligida amalga oshirilgan qazishmalar natijasida madaniy qatlamning nisbatan bir xil xususiyatga ega ekanligi aniqlangan. Qabrlar asosan tabiiy loysimon qatlamga qazilgan bo‘lib, ularning ustki qismi keyingi tabiiy jarayonlar ta’sirida qisman buzilgan.

Qazishmalar jarayonida quyidagi holatlar qayd etilgan:

- qabr chuqurlarining shakli to‘rtburchak va ayrim hollarda oval ko‘rinishda bo‘lgan;

-marhumlar muayyan an’ana asosida joylashtirilgan;

-qabr inventari bir xil madaniy an’anani aks ettirgan; - sopol idishlar asosan marhumning bosh yoki oyoq qismiga qo‘yilgan.

Stratigrafik kuzatuvlar Oqtom qabristoni bir necha vaqt bosqichida foydalanilgan bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi, ammo asosiy materiallar ilk temir davrining yagona madaniy muhitiga mansubligini tasdiqlaydi.

Sufon yodgorligida ham qabrlar tabiiy loysimon qatlamga qazilgan. Ayrim qabrlarda keyingi davr ta’siri natijasida buzilish holatlari kuzatilgan bo‘lsa-da, ko‘pchilik arxeologik majmualar o‘z holicha saqlangan.

Stratigrafik tahlil natijalari quyidagi jihatlarni ko‘rsatadi:

-qabrlarning asosiy qismi bir madaniy bosqichga mansub;

-dafn inventari tarkibi Oqtom bilan katta o‘xshashlikka ega;

- sopol idishlar va metall buyumlar bir xil texnologik an’analarni aks ettiradi.

Stratigrafik ma’lumotlarning Oqtom, Sufon va Chust yodgorliklari materiallari bilan qiyosiy tahlili ularning yagona madaniy an’ana doirasida shakllanganligini ko‘rsatadi. Ayrim mahalliy xususiyatlarga qaramasdan, dafn marosimlari, sopol idishlar texnologiyasi va metall buyumlar o‘rtasidagi o‘xshashliklar madaniy birlikning muhim belgilaridir.

N.G. Gorbunova tomonidan yig‘ilgan arxeologik materiallarni shartli ravishda bir nechta guruhga ajratish mumkin:

1. Sopol buyumlar

Qazishmalarda kosalar, ko‘zalar, xumchalar va boshqa maishiy idishlar aniqlangan. Ularning aksariyati qo‘lda yasalgan bo‘lib, yuzasi silliqlangan. Ayrim namunalarda geometrik naqshlar mavjud.

2. Metall buyumlar

Oqtom va Sufondan bronza hamda temirdan tayyorlangan pichoqlar, bigizlar, ignalar, sirg‘alar va boshqa buyumlar topilgan. Bu topilmalar mahalliy hunarmandchilik rivojlanganligidan dalolat beradi.

3. Bezak buyumlari

Tosh, bronza va ayrim hollarda yarim qimmatbaho minerallardan tayyorlangan taqinchoqlar aniqlangan. Ular aholining estetik didi va ijtimoiy mavqei haqida ma’lumot beradi.

4. Osteologik materiallar

Qabrlarda inson suyaklari bilan bir qatorda hayvon suyaklari ham uchraydi. Bu holat dafn marosimlari va qurbonlik an’analari mavjud bo‘lganligini ko‘rsatishi mumkin. Biroq bunday xulosalarni chiqarishda osteologik tahlil natijalariga tayanish zarur.

Farg‘ona vodiysi ilk temir davri yodgorliklari, xususan, Oqtom va Sufon materiallari tarkibida sopol buyumlar alohida o‘rin tutadi. N.G. Gorbunova ushbu materiallarni tipologik jihatdan tahlil qilib, ularning Chust madaniyati doirasidagi o‘rnini belgilagan. Sopol buyumlarni o‘rganishda quyidagi mezonlar asosiy ahamiyat kasb etadi

-idish shakli;

-yasalish texnologiyasi;

- loy tarkibi;

- pishirish usuli;
- sirtiga ishlov berish;
- bezak xususiyatlari.

Oqtom qabristonidan topilgan sopol idishlar o‘zining shakliy xilma-xilligi va ishlanish sifati bilan ajralib turadi. Ularning asosiy qismi qo‘lda yasalgan bo‘lib, ilk temir davri kulolchilik an’analarini aks ettiradi.

Oqtom sopollari shartli ravishda quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Kosalar

Kosalar Oqtom materiallari orasida keng tarqalgan idish turlaridan biri hisoblanadi. Ular asosan yarim sharsimon yoki konussimon shaklda bo‘lib, og‘iz qismi keng ochilgan. Ayrim namunalarning tashqi qismi silliqlangan, ba’zilarida esa sodda geometrik bezaklar uchraydi. Bu xususiyatlar Chust madaniyati sopollari bilan o‘xshashlikni ko‘rsatadi.

2. Ko‘zalar

Ko‘zalar asosan suyuqlik saqlash va iste’mol qilish uchun xizmat qilgan. Ular tanasining yumaloqligi, bo‘yin qismining torligi va dasta elementlarining mavjudligi bilan xarakterlanadi. Ko‘zalarning shakli va bezak uslubi Farg‘ona vodiysidagi boshqa ilk temir davri yodgorliklari materiallari bilan yaqin o‘xshashlikka ega.

3. Xumchalar

Xumchalar nisbatan kichik hajmdagi idishlar bo‘lib, ular ko‘proq maishiy maqsadlarda ishlatilgan. Ulardan ba’zilari qabr inventari tarkibida uchraydi. Xumchalarning mavjudligi aholining kundalik turmush madaniyati va oziq-ovqat saqlash an’analari haqida ma’lumot beradi.

Sufondan topilgan sopol buyumlar ham Oqtom materiallari bilan katta o‘xshashliklarga ega. Bu o‘xshashliklar, avvalo, idishlarning shakli, tayyorlash texnikasi va bezak uslublarida namoyon bo‘ladi.

Sufon sopollarining muhim xususiyatlari:

- qo‘lda yasalganligi;
- loy massasiga mayda qum aralashtirilganligi;
- tashqi yuzaning silliqlanganligi;

- geometrik naqshlarning qo‘llanilishi. Bu belgilar Farg‘ona vodiysida kulolchilik an’analarining barqaror rivojlanganligini ko‘rsatadi.

XULOSA.

Farg‘ona vodiysi ilk temir davri Markaziy Osiyoning muhim madaniy-tarixiy hududlaridan biri hisoblanadi. Bu davrda vodiy hududida o‘troq dehqonchilik, hunarmandchilik, metallurgiya va mahalliy madaniy an’analarning rivojlanishi kuzatiladi. Oqtom va Sufon arxeologik yodgorliklari ana shu murakkab tarixiy jarayonlarni o‘rganishda muhim manba vazifasini bajaradi.

N.G. Gorbunova tadqiqotlari natijasida mazkur yodgorliklar Farg‘ona vodiysi ilk temir davri madaniyatining ajralmas qismi sifatida baholandi. Ularning materiallari orqali aholining turmush tarzi, xo‘jalik faoliyati, ijtimoiy munosabatlari va ma’naviy qarashlari haqida muhim ma’lumotlar olindi.

N.G. Gorbunovaning Farg‘ona vodiysi arxeologiyasi bo‘yicha tadqiqotlari mintaqaning ilk temir davri madaniyatini o‘rganishda muhim ilmiy bosqichni tashkil etadi. Olim Oqtom va Sufon yodgorliklarini kompleks o‘rganish orqali ularning madaniy-xronologik o‘rnini belgilashga katta hissa qo‘shgan.

Oqtom va Sufon yodgorliklarining stratigrafik xususiyatlari tahlili ularning ilk temir davriga mansubligini va Farg‘ona vodiysida shakllangan Chust madaniyati bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Yodgorliklardan topilgan sopol buyumlar tipologik tahlili mazkur davr kulolchilik an’analarining yuqori darajada rivojlanganligini ko‘rsatadi. Idishlarning shakli, tayyorlanish texnologiyasi va bezak uslublari Farg‘ona vodiysidagi mahalliy kulolchilik maktabi mavjudligini tasdiqlaydi.

N.G. Gorbunovaning mazkur yodgorliklar bo‘yicha tadqiqotlari Farg‘ona vodiysi arxeologiyasi rivojiga katta hissa qo‘shgan bo‘lib, bu ilmiy meros bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Uning ishlari asosida amalga oshiriladigan yangi tadqiqotlar Farg‘ona vodiysining qadimgi tarixi va madaniy taraqqiyotini yanada chuqurroq yoritish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADBIYOTLAR

1.Горбунова Н.Г. Древняя Фергана. – Ленинград: Наука, 1986.

2.Горбунова Н.Г. Культура Ферганы в эпоху раннего железа. – Ленинград: Наука, 1960.

3.Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы. – Ленинград: Наука, 1962.

4.Заднепровский Ю.А. Фергана в эпоху раннего железа. // Археология СССР. – Москва.

5.Askarov A.A. O‘zbekiston tarixi va arxeologiyasi masalalari. – Toshkent: Fan, 1990.

6.Аскаров А.А. Древняя культура земледельцев Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1977.

7.Литвинский Б.А. Археология Средней Азии. – Душанбе: Дониш, 1974.

8.Массон В.М. Древние культуры Средней Азии. – Москва: Наука, 1966.

9.Массон В.М. Средняя Азия и Древний Восток. – Москва: Наука, 1964.

10.Ртвеладзе Э.В. Цивилизации, государства, культуры Центральной Азии. – Ташкент: Фан, 2005.

11.Matboboyev B. Farg‘ona vodiysining qadimgi tarixi va arxeologiyasi. – Toshkent.

12.Matboboyev B. Farg‘ona vodiysida ilk temir davri madaniyati. – Toshkent.

13.Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб. – Ташкент: Фан, 2000.

14.Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. – Ташкент: Фан, 1982.